

## TASVIRIY SAN‘AT TA‘LIMIDA KREATIV YONDASHUV VA INNOVATSION METODLAR

**Ikromaliyeva Mahfuza**

*o‘qituvchi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola tasviriy san‘at ta‘limida kreativ yondashuv va innovatsion metodlarni o‘rganadi. Maqolada o‘quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish zarurligi ta‘kidlanadi. Ekspressiv erkinlik, loyiha asosida ta‘lim, fanlararo integratsiya va raqamli texnologiyalar kabi metodlar bu jarayonda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatilgan.*

**Annotation:** *This article explores the creative approach and innovative methods in art education. It highlights the necessity of developing students' creative thinking. The text examines key methods, including expressive freedom, project-based learning, cross-curricular integration, and the use of digital technologies.*

**Аннотация:** *Эта статья посвящена анализу креативного подхода и инновационных методов в обучении изобразительному искусству. В ней подчеркивается важность развития творческого мышления у учащихся. В статье рассматриваются такие методы, как экспрессивная свобода, проектное обучение, межпредметная интеграция и использование цифровых технологий.*

**Kalit so‘zlar:** *Tasviriy san‘at ta‘limi, Kreativ yondashuv, Innovatsion metodlar, Ijodiy fikrlash, Ekspressiv erkinlik, Loyiha asosida ta‘lim, Fanlararo integratsiya, Raqamli texnologiyalar, San‘at terapiyasi, Vizual san‘at, Pedagogika.*

**Keywords:** *Art education, Creative approach, Innovative methods, Creative thinking, Expressive freedom, Project-based learning, Cross-curricular integration, Digital technologies, Art therapy, Visual arts, Pedagogy.*

**Ключевые слова:** *Обучение изобразительному искусству, Креативный подход, Инновационные методы, Творческое мышление, Экспрессивная свобода, Проектное обучение, Межпредметная интеграция, Цифровые технологии, Арт-терапия, Визуальное искусство, Педагогика.*

Bugungi kunda ta‘limda kreativlik va innovatsionlikka bo‘lgan talab kundan kunga ortib boryapti. Ayniqsa, tasviriy san‘at kabi ijodiy sohalarda an‘anaviy ta‘lim usullaridan foydalanish zamon talablariga to‘liq mos kelmayapti. O‘quvchilar an‘anaviy darslarga qaraganda innovatsion metodlarga asoslangan darslarga katta qiziqish bildirishmoqda. Shuning uchun o‘qituvchilar oldida o‘quvchilarni nafaqat texnik ko‘nikmalar bilan, balki erkin fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan yangi, samarali metodlardan qo‘llash vazifasi ham topshirildi. Pedagog dars mobaynida yetarli darajada kreativlik va innovatsion metodlardan to‘g‘ri foydalana olsa, darsni samarali bo‘lishiga shubha yo‘q.

Tasviriy san‘atda kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar san‘at nazariyachilari va pedagoglarning asarlarida o‘z aksini topgan. Mashxur san‘atshunos va

pedagog Viktor Lowenfeldning “Creative and mental growth” kitobida keltirilgan g‘oyalar muhimdir. “Biz o‘quvchilarga qanday chizishni emas, balki qanday qilib ijodiy fikrlashni o‘rgatishni maqsad qilishimiz kerak”

Tasviriy san‘at ta‘limida kreativ yondashuv – bu o‘quvchilarni turli chegaralardan ozod qilib, uning o‘ziga xos uslubini topishga yordam berish demakdir. Bu yondashuv o‘quvchini shaxsiy tajribalari, his-tuyg‘ulari va dunyoqarashini o‘z asarida ifodalashiga sabab bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi oddiygina bilim beruvchi emas, balki ilhom beruvchi ham bo‘lishi kerak. Kreativ yondashuv faqatgina rang-tasvir va haykaltaroshlikdan iborat emas. U o‘quvchining ichki dunyosi ochishga qaratilgan bir qancha elementlarni o‘z ichiga oladi:

Ekpressiv erkinlik: o‘quvchilar ranglar, shakllar, va chiziq bilan erkin tajriba qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi. Masalan, “Qo‘rquvni rangda tasvirlang” yoki “Musiqaning rangini chizing” kabi kreativ mavzular orqali hissiyotlarni visual shaklda undash

Muammoli topshiriqlar: o‘quvchilarga aniq yo‘nalish bermasdan, ularning o‘zi yechim topishi kerak bo‘lgan muammoli vaziyatlarni berish orqali ularda tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishimiz mumkin. Misol uchun, “siz yashaydigan shaharning kelajagini tasvirlang” mavzusidagi kreativ topshiriqni berish. Kreativ yondashuv orqali dars o‘tilar ekan, o‘quvchilardan har bir harakati mukammal bo‘lishini talab qilmaslik, aksincha xatolar ijodiy jarayonning ajralmas qismi ekanligini tushuntirishni va xatolar yangi ijodiy asar uchun asos bo‘lishi mumkinligini unutmashimiz kerak.

An‘anaviy ta‘limda – tayyor san‘at asari baholandi. Kreativ yondashuvda esa asarning yaratilish jarayoni birinchi o‘rinda turadi.

Bugungi kunda tasviriy san‘at ta‘limida qo‘llanilayotgan innovatsion metodlar an‘anaviy darslar bilan birgalikda yangicha samarali dars jarayonini tashkil qilishga yordam beryapti. An‘anaviy yondashuvdan farqi, o‘quvchilarni ijodiy fikrlashini, mustaqil ishlashini va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishiga ham turtki bo‘ladi. Bu metodlar darsni qiziqarli, interaktiv va samarali qiladi.

Interaktiv texnologiyalar: raqamli planshetlar, grafik dasturlar va 3d modellashtirish kabi texnologiyalardan foydalanish yangi texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan birgalikda, o‘quvchilarni hozirgi zamon sa‘nat dunyosi bilan tanishtiradi. Tasviriy san‘at darslarida virtual muzeylar, gallereyalarga sayohat qilish ham o‘quvchilarda ijobiy taassurotlar uyg‘otadi.

Loyihalar asosida ta‘lim: o‘quvchilar yakka yoki guruh bilan birgalikda turlicha loyihalar ustida ishlashadi. Masalan:

1. Maktab devoriy gazetasi uchun
2. Mahalliy ekologik muammolarni aks ettiruvchi rasmlar
3. Sinf xona uchun ijodiy ishlar
4. Kitob illyustratsiyasi

Fanlararo integratsiya – bu metod boshqa fanlar masalan, fizika, biologiya, adabiyot, matematika va tarix bilan bog‘langan bo‘ladi. O‘quvchilar o‘simlik yoki hayvonlarning anatomiyasini o‘rganishadi va ularni o‘z asarlarida tasvirlashadi yoki yorug‘lik va soya kabi tushunchalarni o‘rganib, ularni portret yoki natyumort chizishda qo‘llash

Ekspressiv terapiya – bu metodda san‘at asar yaratish jarayonida shaxsiy his-tuyg‘ular va ruhiy holatni ifodalash uchun qo‘llaniladi. Bu o‘quvchilarning ruhiy va psixologik holati rivojlanishiga katta ta‘sir qiladi. Misol uchun, “bugungi kayfiyatingizni ranglarda tasvirlang” kabi topshiriqlar berish

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san‘atda kreativ yondashuv va innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarni yaxshi rassom, shu bilan birga mustaqil fikrlovchi, muammolarni ijodiy hal qila oladigan, o‘ziga ishongan, jamoa bilan ishlay oladigan, kreativ shaxs sifatida shakllanishga yordam beradi, dars jarayonini esa qiziqarli va samarali qiladi, o‘quvchilarni san‘atga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni hayotning turli sohalarida muvaffiqiyatga erishishga ilhomlantiradi.

#### **Foydaniqlan adabiyotlar:**

1. Viktor Lowenfeld “Creative and mental growth”
2. Cyberlenika.ru